

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Sodiqova Nigora

Andijon davlat universiteti talabasi

Kalit soʻzlar: *kommunikativ kompetensiya, texnologiya, faoliyat, komponent, nutq, til, muloqot.*

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilari umumiy kamolotida turlicha imkoniyatli bolalar bilan ishlayotganligini unutmazligi kerak. Ular bu davrda bolalarning xulq-atvoridagi salbiy harakatlar: qaysarliklar, injiqliklar, o'jarliklar va boshqa holatlarda qanday metodik yo'l tutishni, qanday samarali psixologik usullardan foydalanishni bilishlari muhimdir. Tabiiyki, bolalarning psixologik holatlari ularning nutqiy faoliyatida o'z aksini topadi. Shuning uchun kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning muhim shartlaridan biri bolalarning ichki kechinmalari bilan bog'liq muloqot muhitini tashkil etish hisoblanadi.

MTTda pedagog-tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga muassasada, guruhda odo-axloq qoidalarini, o'rtoqlari bilan xushmuomala bo'lishni o'rgatadi. Pedagog-tarbiyachi har bir bolaga guruh xonasida, yotoqxonada, sayrda o'zlarini qanday tutishlarini, jixozlar, o'yinchoqlardan qanday foydalanishlarini, ular bilan qanday shug'ullanishlarini, mashg'ulotlarda qanday o'tirishlari, hovlida, o'yingohda o'zgalarga va o'ziga zarar tegmaydigan tarzda harakatlanishni o'rgatadi. Har bir aytilgan fikrni bir bor takrorlashga undaydi. Har bir takrorlangan murojaat bolalar xotirasida saqlanishi ta'minlanadi. So'ngra aynan mana shu vaziyatga duch kelganida bolalardan ko'rib turgan narsalari va voqea-hodisalari haqida so'zlab berish taklif etiladi. Bu jarayonda faol bolalarning hikoyasi passiv bolalar nutqini ham ohang va ham so'z boyligi jihatdan bosib ketadi. Tarbiyachi-pedagog aynan so'zlayotgan, biroq ovozi past bolalarga alohida so'z berib, ularni jarayonga maqsadli jalb etishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina bolalardagi nutqiy imkoniyatlar, ya'ni so'z boyligi va ifodaliligi o'rtasidagi tafovutning sekin-asta yo'qolib borishiga erishiladi. Ba'zida bolalar o'rtasidagi o'zaro muloqotni nutqiy murojaatga undaydigan muammoli vaziyatlarni tashkil etish orqali amalga oshirish ham ijobiy natija beradigan metodik yo'l sanaladi. Bunda o'yin vaqtida o'quv-predmetlar, o'yinchoqlarni tarqatganda ayrim bolalarga ortiqcha va ayrim bolalarga esa kamroq beriladi yoki umuman berilmaydi. So'ngra, bolalardan o'yinga tayyor yoki tayyor emasligi so'raladi. Aksariyat bunday vaziyatlarda bolalarda norozilik holati yuzaga chiqib, "... menda ... yo'q", – degan javoblar kuzatiladi. Shunda tarbiyachi: "Qarang, kimda ... ortiqcha bo'lsa, undan so'rang va oling", – deb topshiriq beradi. Bolalarga murojaat qilgan vaqtlarida to'liq va to'g'ri gapirish talabi tushuntiriladi. Bu yondashuv bir necha bor takrorlangandan so'ng, bolalar o'z-o'zidan buyum almashish harakatini amalga oshirishga odatlanadilar va bu

vaziyatda yana hurmat bilan gapirish hamda soʻzlarni toʻliq va toʻgʻri aytishga oʻrgatib boriladi. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar oʻrtasidagi muloqotda qoʻshimchalardan foydalanishning barqaror uquvi paydo boʻladi. Shu bilan birga ularning axloqida saxiylikning dastlabki kurtaklari shakllanadi.

Nutqni oʻstirish mashgʻulotida bolaning oʻzi gapiradi, tarbiyachining tushuntirishlari va oʻrtoqlarining javoblarini tinglaydi, lekin 3-4 yoshli bolalarda biror mavzuda hikoya qilib berish yoki tengdoshlarining nutqini tinglash qobiliyati endigina shakllanib borayotgan boʻladi. Bu xususiyatlarni tarbiyachilar doim mashgʻulotlarni rejalashtirishda, uni oʻtkazishda hisobga olishi shart. Nutqni oʻstirish mashgʻulotida, shuningdek, mashgʻulotning boshqa turlarida bolalarga taʼlim berib boriladi. Nutq faoliyatining mazmuni, tilning tuzilishi, shuningdek, mashgʻulotni tashkil etish va uning qay tarzda oʻtkazilishi bolalar tarbiyasiga taʼsir etadi. Bolalarda bilishga boʻlgan qiziqishni materialning qiziqarli boʻlishi yoki yoshiga mos boʻlishi bilangina emas, balki mashgʻulotning ijobiy-emotsional tarzda tashkil etilishi bilan oʻstirib boriladi. 5-6 yosh bolalar tashabbuskor boʻladilar, tarbiyachining savollariga javob berishga juda shoshiladilar va buning natijasida xatoga yoʻl qoʻyadilar, agar tarbiyachi bolani maqtasa, undan juda minnatdor boʻladilar va, aksincha, agarda tarbiyachi bolaning xulq-atvoridan yoki savolga bergan javobidan xursand emasligini aytsa, qattiq xafa boʻladilar. Bu jarayon tarbiyachidan juda sabrli va fidoiy boʻlishni talab etadi.

Kichik guruhlarni atrofdagi olam bilan tanishtirish mashgʻulotida hayotda har bir odamning vazifasi borligi aytilib, kattalar ishlaydi, kichik bolalar maktabgacha taʼlim tashkilotlariga boradilar, katta bolalar maktabda oʻqiydilar kabilar toʻgʻrisida tushunchalar beriladi. Ulugʻ siymolar bilan tanishtirishda tarbiyachi rasmda aks etgan siymo haqida tushunarli, sodda jumalarda, mehr va iftixor bilan tasviriy hikoya aytib berish orqali bola qalbida ulugʻ shoir yoki yozuvchi, olim yoki jamiyat arbobiga nisbatan muhabbat, hurmat hissini uygʻotadi. Bolalarda “Mustaqillik”, “Mehrjon”, “Navroʻz” bayramlari haqida ilk tasavvur hosil qilish bilan birga ularning nutqi rivojlantiriladi, bayramlar haqida hikoyalar tuzdiriladi. Bayram kunlari bolalarda kattalardan duo olishga, “barakalla”, “rahmat”, “koʻp yashang” kabi olqish soʻzlarini eshitishga nisbatan havas uygʻotiladi. Bolalarning maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlarining mehnati haqidagi tasavvurlari boyitiladi. Ularning mehnat jarayonlari (*tarbiyachi yordamchisi xonani tozalaydi, idishlarni yuvadi, derazalarni artadi, sochiqlarni yangisiga almashtiradi, ovqat keltiradi; oshpaz ovqatlar, pishiriqlar, ichimliklar tayyorlaydi*) bilan tanishtiriladi. Bola oʻz oila aʼzolarini, tarbiyachini, tarbiyachi yordamchisi va musiqa rahbarining ismini bilishi va kattalarga “sizlab” murojaat etishiga erishish lozim.

Oʻrta guruh bolalarida oʻzi yashayotgan koʻcha, mahalla, qishloq, tuman va shahar bilan tanishtirib, ularning nomlarini toʻgʻri aytishga oʻrgatiladi. Bolaning oʻz ismi-sharifini, ota-onasining ismi sharifini, yashash manzilini bilishlari lozim.

Bundan tashqari, oʻzbek xalqining Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulugʻ siymolari haqida qisqacha maʼlumot beriladi, ularning bolaligi

haqidagi hikoyalar bilan tanishtiriladi. Bolalarda o'zbek xalqining milliy bayramlari va milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni ulug'lash, hurmat qilish tuyg'usini shakllantiriladi. Ularning so'z boyligi yanada ortadi. Bolada kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalab, har bir kasbning o'z vazifasi borligini tushuntiriladi. Masalan g'allakorlar va novvoylar mehnati, ularning ish qurollari, mehnatlarining natijalari haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Kattalar mehnati uchun zarur bo'ladigan ish qurollari, kishilar mehnatini yengillashtiradigan, mehnat jarayonini tezlashtiradigan turli mashinalar bilan tanishtirib, ularning mohiyati tushuntiriladi. Bolalarda uy-ro'zg'or buyumlari (masalan, ko'rpa-to'shak, ko'rpacha, yostiq, choyshab, kiyim javoni, xontaxta)ning shakli, rangi, qattiq va yumshoqligi, vazifalari haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi. Buyumlarni umumlashtirish (oshxona idishlari: choynak, piyola, likopcha, cho'mich, kappir, qozon, kosa, pichoq, tova, chelak, lagan, tovoq, tog'oracha, juva); farqlash (piyolani kosadan, choynakni chovgumdan); bir turdagi buyumlarni guruhlash (choy idishlari: choynak, piyola, qanddon) ko'nikmasi shakllantiriladi. Bolalarni sog'lom turmush tarziga odatlantirish orqali, tanasining ba'zi a'zolarini ko'rsatish, nomlari (o'ng va chap tirsak, o'ng va chap yelka, iyak)ni to'g'ri aytishga o'rgatiladi. Mavzuga oid hikoya va she'rlar o'qish, ko'rgazmali materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Katta guruh 5-6 yoshdagi bolalarning mustaqil O'zbekiston davlati haqidagi tushunchalari kengaytiriladi. O'zbekiston hududidagi tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar, zamonaviy inshootlar haqida tushuncha berish natijasida bolalar lug'ati boyitiladi va nutqi rivojlanadi. Bolalar rasm va videoroliklar tomosha qilib, ularni qayta hikoya qilib beradilar. Bolalarning umumxalq bayramlari: 1-sentabr – "Mustaqillik kuni", 1-oktabr – "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", 8-dekabr – "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun", 21-mart – "Navro'z" bayrami haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi. Bundan tashqari, bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantiriladi. O'zbek xalqi qadim-qadim zamonlardan beri dehqonchilik (paxta, bug'doy, arpa, sholi, makkajo'xori yetishtirish) va chorvachilik (mol, qo'y, echki) boqish bilan shug'ullanishi haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi. Temir, yog'och va matodan ishlangan buyumlar, ulardan to'g'ri foydalanish haqida tushunchalar beriladi.

Tayyorlov guruhida bolalarning O'zbekistonning qadimiy shaharlari: Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Toshkent haqidagi bilimlarini mustahkamlash orqali shaharlarning nomlanishi va tarixini so'zlaydilar. 6-7 yosh orasidagi bolalarga ishlab chiqarish korxonalarini, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqida so'zlab beradilar. Mehnatning shu hududda tarqalgan turi bilan tanishtirib, yaqin atrofdagi ishlab chiqarish (mebel, avtomobil, televizor, to'qimachilik, novvoyxona va h.k.) korxonalariga olib boriladi, ularning nomlanishi, u yerlarda kimlar ishlashi, ishlab chiqaradigan mahsulotlari, mehnat qurollari va asbob-uskunalarini haqidagi bilimlari umumlashtiriladi. Bolalar ishlab chiqarilgan mahsulotlar nomini ayta oladilar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish – dialogik nutq, asosan, kattalar yordamida amalga oshiriladi va u, ayniqsa, tevarak-atrofnii bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi. Bolalarda o'z nutqi va boshqalar nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatni tarbiyalash, ularni to'g'ri gapirishga o'rgatishda qo'l keladi. Gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, jumlar tuzish malakasi mustahkamlanadi, ot, sifat, fe'llarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanish mashq qildiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.
3. Abduhakimova M.K. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy –pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Avtoref. ped.fan.nom.-T.: 2004.-22 b.
4. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Avtoref. ped.fan.nom.T.:1998.-25 b.
5. Abobakirova O.N. Sovremeniye problemi i innovatsionniye podxodi podgotovki detey k shkole//Molodoy ucheniy. Moskva, 2015-№3.